

**YOSHLARNI MUZEYGA QIZIQTIRISH: TA'LIM, INNOVATSIYA
VA MADANIY INTEGRATSIYA ASOSIDA YANGI YONDASHUVLAR**

Yo'ldasheva Maxfuza Rafiqjon qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institute

*17.00.06-Muzeyshunoslik: Tarixiy-madaniy obyektlarni konservatsiya
qilish, ta'mirlash va saqlash ixtisosligi 2-kurs mustaqil izlanuvchisi (PhD)*

Tel: 99 906 0220

Annotatsiya: Mazkur maqola yoshlarning madaniy-ma'rifiy rivojida muzeylarning tutgan o'rni va ahamiyatini tahlil qiladi. Asosiy e'tibor yoshlarni muzeylarga qiziqtirish mexanizmlari, ularni ta'lim tizimiga integratsiya qilish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali yosh avlodning muzeyga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga qaratilgan. Tadqiqotda O'zbekiston sharoitida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan chora-tadbirlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: muzeyshunoslik, san'at, yoshlar, innovatsiya, raqamlashtirish, ta'lim, madaniy-ma'rifiy tadbirlar.

Annotation: This article analyzes the role and importance of museums in the cultural and educational development of youth. The main focus is on mechanisms to attract young people to museums, their integration into the education system, the use of innovative technologies, and the formation of museum culture among the younger generation through cultural and educational activities. The study proposes measures that can be implemented in the context of Uzbekistan.

Keywords: museology, art, youth, innovation, digitization, education, cultural and educational activities.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение музеев в культурно-просветительском развитии молодежи. Основное внимание уделяется механизмам привлечения молодежи в музеи, их интеграции в систему образования, использованию инновационных технологий, а также

формированию музейной культуры у подрастающего поколения посредством культурно-просветительских мероприятий. В исследовании предлагаются меры, которые могут быть реализованы в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: музеология, искусство, молодежь, инновации, цифровизация, образование, культурно-просветительские мероприятия.

Muzeylar ilm-fan, san'at va madaniyat merosini saqlovchi maskan sifatida jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda yoshlarni milliy va madaniy merosimizni o'rganish, saqlash, targ'ib etishga jalb qilish dolzarb masalalardan biridir. Shu bois ta'lim, raqamli texnologiyalar va madaniy-ma'rifiy dasturlar orqali yoshlarning muzeylarga qiziqishini oshirish zarur.

Ta'lim tizimiga san'at integratsiyasini kiritish, tarix, adabiyot va san'at darslarini muzey eksponatlari bilan uyg'unlashtirish va urg'u berish, maktab va oliy ta'lim dasturlariga muzeyshunoslik fanini kiritish va muntazam ravishda muzey, shaxsiy kolleksiyalar va uy muzeylarga majburiy ekskursiyalarni tashkil etish, talabalar uchun muzey amaliyotlari va "Yosh muzeyshunoslar" dasturlarini yo'lga qo'yish kabi loyihalar amalga oshirish yoshlarning muzeyshunoslikka bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirishga muhim qadam bo'lib xizmat qiladi deb hisoblayman.

Innovatsion yondashuvlar sifatida quyidagi chora-tadbirlarni misol keltiraman:

Ekspozitsiyalarda AR/VR texnologiyalari yordamida tarixiy voqealarni jonlantirish, mobil ilovalar va onlayn o'yinlar orqali yoshlar uchun qiziqarli ta'limiy kontentlar yaratish, raqamlashtirilgan eksponatlar asosida virtual muzeylar tashkil etish.

Muzey kechalari, tematik haftaliklar, yoshlar festivallarini muntazam o'tkazish, "Eng yaxshi muzey loyihasi", "Tarixiy viktorinalar", "Ijodiy esse" kabi konkurs va tanlovlar tashkil etish, rassomlar, yozuvchilar va talabalarning ijodiy ishlari asosida ko'rgazmalar tashkil etish, ommaviy madaniyat vositalari orqali

qiziqish uygʻotish, multfilm va filmlar orqali yosh avlodda tarixiy merosga mehr uygʻotish, ijtimoiy tarmoqlarda interaktiv kontent: “Bir kun muzeyda”, “Ekspонат sirlarini toping” kabi loyihalar tashkil etish, mashhur blogger va san’atkorlar ishtirokida muzey targʻibotini yoʻlga qoʻyish, muzeylarda mahorat darslari, restavratsiya amaliyotlari, san’at ustaxonalari tashkil qilish kabi tadbirlar madaniy-ma’rifiy sohadagi yechim boʻla oladi.

Xulosa

Yoshlarni muzeyga jalb qilish faqatgina ekskursiyalarni koʻpaytirish bilan emas, balki ta’lim, innovatsiya, ommaviy madaniyat va ijtimoiy ishtirokni uygʻunlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon yoshlarning madaniy identitetini mustahkamlash, ilmiy va estetik dunyoqarashini kengaytirishda beqiyos ahamiyatga ega. Oʻzbekiston sharoitida bunday tashabbuslar yoshlarning milliy merosni anglashida va uni asrab-avaylashida muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Falk, J. H., & Dierking, L. D. (2018). Learning from Museums: Visitor Experiences and the Making of Meaning. Rowman & Littlefield.
2. Hein, G. E. (2006). Museum education. In Macdonald, S. (Ed.), A Companion to Museum Studies (pp. 340–352). Blackwell.
3. Hooper-Greenhill, E. (2007). Museums and Education: Purpose, Pedagogy, Performance. Routledge.
4. UNESCO (2015). Education and museums: Enhancing learning experiences. Paris: UNESCO Publishing.
5. Anderson, D. (2012). Youth, museums and engagement: New agendas for cultural policy. International Journal of Cultural Policy, 18(1), 64–81.